

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA INTELLEKTUAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ZARURATI

O'rinov Rustambek Yoqubjonovich

Farg'ona texnika universiteti o'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrasida assistenti

Annotasiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik zarurati tahlil qilinadi. Intellektual kompetentlik kasbiy faoliyat samaradorligini belgilaydigan muhim omil sifatida talaba shaxsining aqliy salohiyati, tanqidiy va analitik tafakkuri, kreativ fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Xorijiy va milliy ta'lim tizimida talabalar intellektual salohiyatini baholash mezonlari o'rganilib, ularni milliy oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, intellektual kompetentlikning shakllanishida bilim, tafakkur, dunyoqarash, ijtimoiy muhit, axloqiy madaniyat, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligining o'рни ochib beriladi.

Kalit so'zlar: intellektual kompetentlik, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, intellektual madaniyat, analitik tafakkur, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, sintez qilish qobiliyati, muammoni hal qilish, ilmiy dunyoqarash.

THE SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPING INTELLECTUAL COMPETENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Annotation. This article analyzes the scientific and pedagogical necessity of developing intellectual competence in future English language teachers. Intellectual competence is considered a significant factor determining the effectiveness of professional activity and is examined in close connection with the student's intellectual potential, critical and analytical thinking, creative thinking, problem-solving ability, and scientific worldview. The criteria for assessing students' intellectual potential in foreign and national education systems are explored, and the necessity of integrating these criteria into national higher education practice is substantiated. In addition, the role of knowledge, thinking, worldview, social environment, moral culture, and the integration of religious and secular knowledge in the formation of intellectual competence is revealed.

Keywords: intellectual competence, future English language teachers, intellectual culture, analytical thinking, critical thinking, creative thinking, synthesis ability, problem-solving, scientific worldview.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье анализируется научно-педагогическая необходимость развития интеллектуальной компетентности у будущих учителей

английского языка. Интеллектуальная компетентность рассматривается как важный фактор, определяющий эффективность профессиональной деятельности, и раскрывается в тесной взаимосвязи с интеллектуальным потенциалом личности студента, его критическим и аналитическим мышлением, креативным мышлением, способностью решать проблемы и научным мировоззрением. Изучаются критерии оценки интеллектуального потенциала студентов в зарубежных и национальной системах образования, а также обосновывается необходимость их внедрения в практику национального высшего образования. Кроме того, раскрывается роль знаний, мышления, мировоззрения, социальной среды, нравственной культуры и интеграции религиозных и светских знаний в формировании интеллектуальной компетентности.

Ключевые слова: интеллектуальная компетентность, будущие учителя английского языка, интеллектуальная культура, аналитическое мышление, критическое мышление, креативное мышление, способность к синтезу, решение проблем, научное мировоззрение.

KIRISH

Bo'lajak kadrning intellektual saviyasi ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik salohiyati, talabaning aqliy va analitik tafakkur qobiliyati, dunyoqarashi hamda tanqidiy fikrlash darajasiga chambarchas bog'liq bo'ladi. Demak, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirish – ularning aqliy qobiliyati, bilimi, fikrlash darajasi, tanqidiy tafakkuri, dunyoni ilmiy bilishi va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni individual hal qilishi, oqilona ish tutishi, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqatining yuksak ko'rinishi"sifatida ta'rif berish mumkin.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi salohiyatli universitetlar tomonidan ishlab chiqilgan va ko'plab davlatlar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tan olingan talabalar intellektual salohiyatini belgilash mezonlarida quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi.

- talabaning analitik fikrlashi (*analytical thinking*)
- talabaning tanqidiy fikrlashi (*critical thinking*)
- talabaning sintez qila olish layoqati(*synthesis thinking*)
- talabaning kreativ fikrlashi (*creative thinking*)
- talabaning muammoni echish ko'nikmasi(*problem solving*)[1].

Ushbu mezonlar orqali bo'lajak kadrlarning intellektual saviyasi aniqlanadi va yuqori salohiyatga ega mutaxassislar sifatida baholanadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, xorijiy ta'lim muasasalarida talabanning bilimlilik darajasi bilan birga, uning tanqidiy fikrlashi, analiz-sintez qilish qobiliyati, kreativligi va muammoni echish layoqatiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Mamlakatimizda ham xorijiy tajribani o'rganish asosida ushbu yondashuvni oliy ta'limga olib kirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyatning intellektual potentsialini shakllantiruvchi hamda fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm ta'lim hisoblanadi. Ta'lim tizimining samaradorligi u etishtirayotgan mutaxassislarning salohiyati, intellektual madaniyati bilan o'lchanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muasasasiga xos ijtimoiy etuklik xususiyatlariga, ya'ni shakllangan psixologik madaniyat, barqaror gumanistik nuqtai nazarga, rivojlangan intellektual sifatlarga ega bo'lgan, kelajakda o'z ishining ustasi bo'lib etishishi uchun bilimli shaxsni tarbiyalashi zarur. Bu vazifani hal qilishning ma'lum murakkabliklari mavjud bo'lib, ular fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi bilan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining intellektual rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovut, ya'ni uzilishdan iborat bo'lib, hozirda ushbu muammo bir qator mualliflar tomonidan faol muhokama qilinmoqda[2]. Bir tomondan, intellektual vositalar yuqori marralarga erishishga yordam bersa, ikkinchi tomondan "intellekt tanqisligi davri yaqinlashib kelmoqda", bu o'z navbatida jamiyatning intellektual zahira darajasining pasayishiga olib keladi[3].

METODLAR

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligining asosi bilim, tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Bilim – bilish jarayonida erishgan natijasi, shu voqelikni o'z ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan adekvat in'ikosi hisoblanadi. Talabanning voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlari bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibliigi; ikkinchidan, etarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim[3].

Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba bilmaslikdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Bunda talabada intellektual tafakkur rivojlanadi.

Tafakkur–aqliy bilish jarayonining yuqori bosqichi bo'lib, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq pedagogik jarayonda talaba ob'ektning mohiyatiga kirib boradi, undagi zaruriy aloqalar va ichki qonuniyatlarni anglaydi. Shundan keyin uning intellektual dunyoqarashi shakllanadi.

Dunyoqarashi – umumiy tushunish natijasida uning ilmiy-nazariy orientasiyasi hisoblanadi. Talabaning bilim olishga layoqati ko'nikmaga aylangani sayin unda ilmiy tafakkur va ilmiy dunyoqarash yuksaladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridagi ma'lum intellektual qobiliyat, ko'nikmalarning kognitiv faoliyatdagi umumlashib boshqalardagiga qaraganda yuqoriroq darajada namoyon bo'lishi iqtidor bo'lib, u birinchi o'rinda irsiy imkoniyatlar bilan bog'liq holda sog'lom, ijobiy ijtimoiy muhitda shakllanadi. Bu o'rinda irsiy imkoniyat qanchalik katta bo'lmasin, u ma'lum ijtimoiy muhitga tushmasa yoki ijtimoiy muhit qanchalik ijobiy bo'lishiga qaramasdan shaxsda irsiy imkoniyat tabiatan berilmagan bo'lsa, bunday shaxslarda yuqori iqtidorni ko'rish qiyin. Bu qarashni asoslash uchun Loyd Morgan boshchiligidagi olimlar insonlar intellekti va hayvon intellekti tushunchalarini tahlilini o'tkazadi va hayvonlarda intellektual jarayon yuz bermasligi farazini ilgari suradilar[4]. Demak, iqtidorli talabada ma'lum irsiy imkoniyatlar tabiatan berilgan bo'lsa, uning ushbu imkoniyati ma'lum ijtimoiy muhitda shakllanishi, yuksalib borishi lozim. Shunday ekan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual kompetentligini yuksaltirish uchun, birinchi navbatda, ilm-fanga qiziqishi yuqori bo'lgan, uni e'zozlay oladigan, kitobni yuksak qadriyat sifatida qadrlaydigan ijtimoiy muhitni, ta'lim muassasasini shakllantirish zarur bo'ladi. Talabalarning zakovati tezkor fikrlash hamda bilish qobiliyati, kreativ fikrlashda hozirlik, dunyoqarashining kengligi kabi sifatlar bilan izohlanadi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda N.Hamfrey, K.Klifton, H.Broudkabi olimlar tomonidan talabalarning intellektual kompetentliginni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Tadqiqotlar xulosalarida talabalarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va

kasbiy munosabatga kirishishi va jamiyatda o'z-o'rnini topishida aqliy salohiyatning o'zi etarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Shuning uchun ham talabalarning aqliy qobiliyati, layoqati va imkoniyatlari bilan birga uning ijtimoiy konformizmini ham shakllantirish zarur degan xulosaga kelinmoqda. Bu esa, talabalarning intellektual madaniyati bilan birga ijtimoiy intellekti doirasida ham tadqiqotlar olib borishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Sharq mamlakatlarida intellektual kompetentlikni rivojlantirishda sharqona axloqiy madaniyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, u talabada milliy xarakterni shakllantiradi va bu yillar davomida genetik jarayonga aylanadi. Shuning uchun ham bizda talabalar o'qituvchi bilan erkin munosabatga kirisha olmaydi, bahs-munozara qila olmaydi, darsda passiv ishtirokchi bo'lib o'tiradi. Agar talaba o'qituvchi bilan bahslashsa, u axloqan jazolanadi. Shunday ekan, bilim olish, rasionallik ma'lum sharoitda shakllangan axloqiy norma va shablonlardan iborat emasligini ham anglash lozim. Axloqiy madaniyat intellektual madaniyatning hosilasi bo'lmish ilm-fan yangiliklari va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan kelisha olmasligi mumkin, lekin tom ma'nodagi intellektual madaniyat axloqiy madaniyatning yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Demak, Sharqda talabalarning intellektual qobiliyatlari ularning axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida shakllanadi.

NATIJALAR

Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda bo'lajak kadrlarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda din omilini ham inobatga olish lozim. Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda diniy fonning kuchliligi ilm olishni shubha ostiga olmoqda. Ya'ni ularda tanqidiy tafakkur qilish, shubhalanish, borliqni anglashga urinish dindan uzoqlashish sifatida baholanadi. Natijada diniy ta'sirning kuchliligi talabalarda ilmga ishonchsizlik, tanqidiy tafakkur qilmaslik, ilmiy shubhalanmaslik ko'nikmasini shakllantiradi, bu esa, qotib qolgan tafakkurga ega robotlar tarbiyalovchi muhitni yaratadi. Aslida haqiqiy din insonlarni bilim olish, fikrlash, tafakkur qilishga undaydi. Islomning "O'qi!" degan ilohiy xitob bilan boshlanishini bilgan inson bu dinning ilm-ma'rifat dini ekanligini bilmasligining o'zi jaholatdir[5]. Mamlakatimizda ham bu omil ta'sirini inobatga olgan holda diniy va

dunyoviy ilmlar hamjihatligini shakllantirish, sof din va sof ilm hech qachon bir biriga zid kelmasligi, aksincha bir-biriga suyanishini talabalarga tushuntirish zarurati mavjud. Bu esa talabalar intellektual madaniyatini rivojlantiruvchi omilga aylanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning intellektual kompetentligini intuitiv bilimlardan oqilona foydalana olishga o'rgatish juda muhimdir. Mashhur nemis faylasufi V.Dalteyning fikriga ko'ra, ichki kechinmalarni idrok etish bevosita mohiyatni anglashdir va u bevosita beriladi. Talabalar ichki kechinmalarining mazmuni o'zgaruvchan bo'lsa-da, ayni bir munosabatni o'zida namoyon qiladi. Kechinmalar bir-birini ergashtirib keladi va o'zini umumlashtirish imkonini beradi. Demak, talabalarning aqliy qobiliyati o'z kechinmalarini anglay olishlari orqali voqelikning mohiyatiga kirib borishga imkon beradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchining aqliy qobiliyatini o'stirishdagi muhim vosita fikrlash ya'ni, mantiqiy Qva analitik tafakkur qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'ziga xos dunyoqarashni shakllantirishdir. Aslida tafakkur insonni boshqa mavjudotlardan ayiruvchi, ustunligini ko'rsatuvchi muhim omildir. Insonning intellektual madaniyati undagi intellektual mulk asosida baholanadi. Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli bo'lib, ixtirochilik va mualliflik ob'ekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar va boshqa akliy mulk ob'ektlari kiradi[6]. Talabalarda intellektual madaniyatni rivojlantirishdan maqsad intellektual mulk yaratish layoqatiga ega shaxslarni tarbiyalash hamdir. Shunday ekan, ijodiy intellektual faoliyat mahsulini yaratish iqtidorini shakllantirish talabaning intellektual madaniyatining hosilasi hisoblanadi. Intellektual mulkni yarata olish uchun esa talabaga bilim va ko'nikmalar kerak bo'ladi. Umuman olganda, fundamental bilimlar inson intellektual madaniyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Fikrlar ongning hosilasi hisoblanib, intellektual ongni shakllantira bilish talabalarda yuksak intellektual madaniyatni yuzaga chiqaradi. Talabaning yuksak aqliy qobiliyati undagi intellektual ong darajasini belgilab beradi. Intellektning o'zi esa barqaror aqliy qobiliyat ekanligini rus olimi V.B.Tarasov quyidagicha ifodalaydi. "Intellekt individning ma'lum darajada mustahkam,

barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir"[7]. Boshqa bir ingliz olimi Nikolas Hamfrey intellektning ijtimoiy vazifasi "ijtimoiy muammolarni oldindan ko'rish va uni prognoz qilaolish ekanligini aytadi"[8]. Bo'lajak mutaxassislarining intellektual salohiyati o'z sohasi bo'yicha futurologik funktsiyani bajaraolishi bilan o'lchanishi zarur. Bu mezon Amerika universitetlarida XX asrning boshlaridayoq amaliyotga kiritilgan. Talabalarda pragnostik dunyoqarash shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi[9]. Shunday ekan, intellektni tafakkurdagi o'ziga xos jarayon ekanligini anglab etganimizdagina sifat bosqichiga o'tiladi. Talabalarning intellektual madaniyati, tafakkurning yuksak darajada namoyon bo'lishi ta'lim-tarbiyada, o'qitish jarayonida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni o'ziga xos shakli ularning favqulodda kuchli xotirasidir. Xotira insonning bilish faoliyatidagi muhim zanjir bo'lib, u asosida narsa va hodisalar obrazi bir-biri bilan bog'lanadi va yangi bilimlar yaratiladi. Talabalarning intellektual xotirasi bosqichma-bosqich, quyidan yuqoriga tomon olingan bilimlar, olib borilgan mashg'ulotlar asosida mustahkamlanadi va boyib boradi. Ba'zi mutafakkirlar fikricha, insoniyatning bugungi tamaddunidagi ulug'vorlik undagi o'ziga xos xususiyat – xotiraning mavjud ekanligidadir. Buyuk mutafakkir Aristotel falsafasiga tayansak, talabalar xotirasini metafizik voqelik bilan bog'lay olish, undan ozuqa olishga yordamlashish bo'lajak kadrlar intellektual salohiyati ijtimoiy o'zgaruvchi jarayonlarga dosh berishini ta'minlaydi. Talabalarda intellektual madaniyatni yuksaltirishning muhim pedagogik vazifalaridan biri ilm oluvchida mustahkam va kuchli xotirani shakllantirishdir. Chunki kuchli xotira, teran tafakkur va ilm olish istagi unda intellektual ongni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy jihatdan talabalarning intellektual madaniyati intellektual ehtiyojga bog'liq bo'lib, jamiyatning ilm-fanga ehtiyoji va talabi, ta'lim tizimining rivojlanganlik darajasi, texnika va texnologiyani mavjudligi va talabaning individual xususiyatlari kabi omillardan kelib chiqadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikning mohiyatini anglash uchun uning shakllanish jarayonini ko'rib chiqishi zarur. Har bir ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatlar o'ziga xos intellektual salohiyatga ega bo'lgan. Buni biz o'sha

jamiyatlardagi tafakkuriy o'zgarishlardan bilishimiz mumkin. Falsafa fani jamiyatlar taraqqiyotini iqtisodiy va siyosiy erkinlikning mavjud bo'lishiga qarab baholasa-da, uning yashovchanligini ilm-fan va teran tafakkurni yuksalishi bilan belgilanadi. Zero, insoniyat tafakkuri asrlar oshgani sayin kengaymoqda. Insoniyat intellektuallashuv jarayonining asrlar davomida rivojlanishi natijasida intellektual xarakter ham shakllandi. Intellektual xarakter–aqliy qobiliyati, salohiyati, bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi yuksalgan inson, olim, mutafakkirning individual hayotiy tamoyillariga ilmiy tamoyillarni ko'chishi va umumiy hayotiy-ilmiy normalarni shakllanishidir. Bunga Suqrot, Aflotun, Nyu'ton, Volter, J.J.Russo, I.Kant, F.Nissshelarni misol keltirish mumkin. Bunday vaziyatda har bir jamiyat, xususan, jamiyatimiz ham yoshlarini aqliy qobiliyati va u asosda shakllanadigan ijtimoiy intellektual madaniyat xarakterini mudom yuksaltirmog'i zarur. Ta'lim-tarbiya orqali yoshlar dunyoqarashini o'stirish va intellektual salohiyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Sababi bugungi kunda intellektual salohiyati yuksak davlatlarga yashab qoladi. Mamlakatimizda ham talabalarni intellektual salohiyatini oshirish orqali ularning madaniyatini shakllantirish va shu orqali iqtisodiy yuksaklikka erishish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Buning uchun esa talabalarni o'qitish jarayonida fundamental bilimlar berish bilan birga, falsafiy, axloqiy, estetik va mantiqiy fikrlashga ham o'rgatish zarur.

XULOSA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual kompetentlikni rivojlantirish uchun tarixiy taraqqiyotda qanday pedagogik usul va falsafiy metodlardan foydalanilganligini ko'rib chiqish va ulardan samaralilarini bugungi ta'limda ham foydalanish zarur. Misol uchun, qadimgi davrda o'quvchilar intellektual qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini yuksaltirish, teran tafakkurni shakllantirish uchun aporiyan'ati (yunoncha, aporia-qiyinchilik degan ma'noni anglatib, mushkul muammolar shunday atalgan)keng yoyiladi. Ayniqsa, Suqrotning dialog, sofistika usullari intellektual madaniyat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sofistika usulining umumiy xususiyati muammo qo'yish va uning echimini topishdan iborat bo'lgan. Bu ham o'ziga xos pedagogik metod bo'lib, chalg'itish, teskari savol berish,

noto'g'ri tomonga olib ketish, umuman olganda, oqni qora deyish orqali munozara tashkil etish, talabalarda undan chiqib ketish, to'g'ri fikrlashga o'rganish va mantiqiy fikrlashni kuchaytirish xususiyatlari shakllantirilgan. Bugungi kunda ham qolipga solingan tushunchalar va shablonli ma'ruzalardan uzoqlashib talabalarni kreativ fikrlashga, xolisona munosabat bildira olish ko'nikmasiga o'rgatish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sompong Punturat, Paisan Suwannoi, Jatuphum Ketchatturat. Intellectual Skills Assessment for the Teacher Students at the Faculty of Education, KhonKaen University. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 116 (2014 pp. 1704 – 1708.
2. Вербицкий А.А. Противоречия образования и культуры // Психология образования: Проблемы и перспективы. М., 2004. – С.3.
3. Зиновьев А. Высшее образование и логика интеллекта // *Alma mater*. 2004. № 5. С.11-13.
4. Falsafa qomusiy lug'at. Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2004, -B. 54.
5. Roback A.A. Intelligence and Intellect. *The Journal of Philosophy*, Vol. 19, No. 12 (Jun. 8, 1922), pp. 325-330
6. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. *Olam va odam, din va ilm.* – Toshkent.: "Hilol" nashr. 2019, -B.64.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Toshkent. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. –B. 179.
8. Тарасов В.Б. От многоагентных систем к интеллектуальным организациям: философия, психология, информатика. - М.: Эдиториал УРСС, 2002. –С. 352.
9. Nicholas Humphrey. The social function of intellect. Cambridge University Press, Cambridge, 1976 *Growing Points in Ethology*, ed. P.P.G. Bateson and R.A. Hinde, pp. 303- 317